

TA'LIM MENEJMENTINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI VA ULARNING AHAMIYATI

Imamaliyev Ulug'bek Turapbayevich,

A.Avloniy nomidagi pedagogik

*mahorat milliy instituti 13.00.07 – Ta'limda menejment ixtisosligi bo'yicha
mustaqil tadqiqotchisi*

Annotatsiya. Mazkur maqolada ta'lim menejmentining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari, uning nazariy asoslari hamda ta'lim tizimida samarali boshqaruvni tashkil etish masalalari tahlil qilinadi. Shuningdek, ta'lim menejmentining tarixiy rivojlanish jarayoni, zamonaviy boshqaruv yondashuvlari va ta'lim sifatini oshirishdagi o'rni yoritib berilgan. Maqolada ta'lim muassasalarida menejment faoliyatini takomillashtirish bo'yicha ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Ta'lim menejmenti, boshqaruv tizimi, ta'lim tizimi, menejment bosqichlari, ta'limni boshqarish, zamonaviy boshqaruv usullari, ta'lim sifati, pedagogik boshqaruv, ta'lim muassasasi boshqaruvi.

Аннотация. В данной статье рассматриваются этапы становления и развития образовательного менеджмента, его теоретические основы, а также вопросы организации эффективного управления в системе образования. Особое внимание уделяется историческому развитию образовательного менеджмента, современным подходам к управлению и их роли в повышении качества образования. В статье представлены научные выводы и практические рекомендации по совершенствованию управленческой деятельности в образовательных учреждениях.

Ключевые слова: Образовательный менеджмент, система управления, система образования, этапы развития менеджмента, управление образованием, современные методы управления, качество образования, педагогическое управление, управление образовательным учреждением.

Abstract. This article examines the stages of development of educational management, its theoretical foundations, and the issues of organizing effective management in the education system. Particular attention is paid to the historical development of educational management, modern management approaches, and their role in improving the quality of education. The article also presents scientific conclusions and practical recommendations for improving management activities in educational institutions.

Keywords: Educational management, management system, education system, stages of management development, education management, modern management methods, quality of education, pedagogical management, educational institution management.

Kirish. Etimologik jihatdan “management” tushunchasi ingliz tilidagi “management” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, uning ildizi lotin tilidagi “manus” (qo‘l) va “agere” (harakat qilmoq, boshqarmoq, yo‘naltirmoq) so‘zlariga borib taqaladi. Shuning uchun “management” so‘zini so‘zma-so‘z tarjima qilinganda “qo‘llar bilan yo‘naltirish” yoki “qo‘llar bilan boshqarish” deb talqin etish mumkin. Bu dastlab otlarni jilov bilan boshqarish ma’nosida ishlatilgan bo‘lsa-da, keyinchalik ma’no kengayib, har qanday resurslarni boshqarish tushunchasi sifatida foydalanilgan.

Keng ma’nodagi management (boshqaruv) - oldindan belgilangan maqsadlarga erishish uchun resurslarni rejalashtirish, tashkil etish, yo‘naltirish, muvofiqlashtirish va nazorat qilish jarayonidir.

Menejment tushunchasi turli mutaxassislar tomonidan har xil nuqtai nazardan talqin qilingan:

Henri Fayol menejmentni beshta asosiy funksiyadan iborat deb hisoblagan: rejalashtirish (planning), tashkil etish (organizing), buyurish/yo'naltirish (commanding), muvofiqlashtirish (coordinating) va nazorat qilish (controlling).

Peter Druckerning fikriga ko'ra, menejment - tashkilot resurslarini oldindan belgilangan maqsadlarga erishish uchun boshqarish jarayonidir.

Mary Parker Follett esa menejmentga quyidagicha ta'rif bergan, menejment - shaxslarning umumiy maqsadlarga birgalikda erishishi uchun ularni hamkorlikda ishlashga imkon beruvchi ijtimoiy jarayondir .

Umumiy holda menejment - tashkilotdagi resurslarni rejalashtirish, yo'naltirish, nazorat qilish va muvofiqlashtirish orqali oldindan belgilangan maqsadlarga erishish jarayonidir.

Ta'lim so'zining lug'aviy ma'nosi shundan iboratki, u insonni bilim, malaka va ko'nikmalar bilan qurollantirib, uni hayotga, mehnatga va jamiyatdagi faol ishtirok etishga tayyorlash jarayonidir. Bu so'z arab tilidagi (تعليم) dan olingan bo'lib, uning o'zagi (علم) - "bilmoq, o'rgatmoq, bilim berish" degan ma'noni bildiradi. Shuning uchun ta'lim asosan aqliy rivojlanishga, ya'ni bilim uzatish, o'qitish va amaliy qobiliyatlar hosil qilishga qaratilgan jarayon sifatida tushuniladi. O'zbek tilida "ta'lim" ko'pincha rasmiy va pedagogik kontekstda ishlatiladi (maktabgacha va maktab ta'limi, oliy ta'lim, ta'lim tizimi kabi) va u "tarbiya"dan farqli o'laroq, ko'proq bilim va ko'nikma berishga urg'u beradi, tarbiya esa shaxsni axloqiy, ma'naviy va ijtimoiy jihatdan shakllantirishni o'z ichiga oladi. Xulosa qilib aytganda, ta'lim – bu shaxsni ichki potentsialini ochib, uni bilim va malakalar orqali eng yaxshi holatiga yetaklash, hayotga tayyorlashning asosiy yo'li va vositasidir.

Ta'lim menejmenti bo'yicha yurtimiz va xoriji olimlarning manbalarida izohlar va ta'riflar keltirilgan.

Adabiyotlar tahlili. R.X. Jo'rayev va boshqalarning "Ta'lim menejmenti" nomli manbasida ta'limni boshqarishning usullari, qarorlari va strategiyalarini batafsil yoritib bergan. Ular ta'lim menejmentibo'yicha quyidagicha ta'riflarni keltiradi: Ta'lim menejmenti – ta'lim muassasalarining faoliyatini ilmiy asosda tashkil etish, resurslarni samarali taqsimlash, maqsadlarga erishish jarayonidir. U boshqaruvning ilmiy tomoni (qonuniyatlar, tamoyillar, funksiyalari: rejalashtirish, tashkil etish, rahbarlik, nazorat) bilan birga, rahbarning shaxsiy qobiliyati, intuitiv va ijodiy qaror qabul qilish san'ati sifatida ko'riladi .

Sh. Po'latovning "Ta'lim menejmenti, yoxud ta'lim muassasasini ilmiy-metodik boshqarish strategiyasi" nomli o'quv qo'llanmasida ta'lim menejmentini ilmiy-metodik boshqaruv va innovatsion yondashuv sifatida ta'rif beradi .

Xorijiy olimlar bo'lsa quyida ta'riflarni keltirishgan:

Eng ko‘p iqtibos qilinadigan muallif Tony Bush “Ta‘lim menejmenti - ta‘lim tashkilotlarining faoliyatini yuritish bilan bog‘liq bo‘lgan ilmiy va amaliy sohadir” - deb ta‘rif bergan. Bunda U ta‘lim maqsadlari bilan bog‘lashni ta‘kidlaydi.

G. Terry Page va J.B. Thomaslar ta‘lim menejmentini mavjud ta‘lim muassasalari va tizimlarini tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti deb ta‘riflaydilar.

Bolam esa ta‘lim menejmentini “kelishilgan siyosatni amalga oshirish uchun ijroiya funksiyasi” - deb ataydi

Muhokama va natija. Yuqoridagi tushuntirishlarga asoslanib, “Ta‘lim menejmenti - ta‘lim muassasasi yoki tizimida rejalashtirish, tashkil etish, yo‘naltirish, nazorat qilish va baholash jarayonlaridan iborat tizimli faoliyatdir” deb ta‘riflash mumkin. U boshqaruv tamoyillarini ta‘lim kontekstida qo‘llashga qaratilgan bo‘lib, asosiy maqsadi ta‘lim jarayonining samaradorligi, tejamkorligi va sifatini oshirish, shuningdek, muassasa yoki tizim erishadigan natijalarni yaxshilashdan iborat.

Ta‘lim menejmentining rivojlanish bosqichlari. Ta‘lim menejmenti XX asr boshidan boshlab umumiy menejment nazariyalariga asoslanib rivojlangan. Uning bosqichlari quyidagicha tasniflanadi, bu bosqichlar ta‘lim muassasalarida qo‘llanilgan va vaqt o‘tishi bilan takomillashgan. Ta‘lim menejmentining rivojlanishi korxonalar menejmenti sohasidan kelib chiqqan bo‘lib, samaradorlik, muvozanat va standartlashtirishga urg‘u beradi. Quyidagi bosqichlar ta‘limda qo‘llanilgan asosiy nazariyalarni aks ettiradi:

1. Klassik yondashuv (XX asr boshi): Bu bosqichda ta‘lim menejmenti ilm-fan asosida samaradorlikka e‘tibor qaratgan. Frederik Teylorning ilmiy menejment tamoyillari ta‘limda qo‘llanilib, o‘qituvchilarning ish vaqtini tahlil qilish va standartlashtirish orqali natijalarni oshirishga harakat qilingan. Anri Fayolning rejalashtirish, tashkil etish, rahbarlik va nazorat funksiyalari ta‘lim muassasalarida asosiy rol o‘ynagan. Ushbu yondashuv ta‘limda samaradorlikni oshirishga qaratilgan bo‘lib, korxonalar menejmentidan olingan.

2. Neoklassik yondashuv (1930–1950-yillar): Insoniy munosabatlar nazariyasiga asoslangan, Elton Meyoning tajribalari ta‘limda o‘qituvchi va o‘quvchilarning psixologik va ijtimoiy omillarini hisobga olishni ta‘kidlagan. Chester Barnard va Lyuter Gulikning ishlarida tashkiliy tuzilma va motivatsiya ta‘lim muassasalarida jamoaviy ruhni kuchaytirish uchun ishlatilgan. Bu bosqich insoniy munosabatlar nazariyasini ta‘limda qo‘llash orqali rivojlangan.

3. Xulq-atvor yondashuvi (1950–1960-yillar): Duglas MakGregorning X va Y nazariyalari ta‘limda rahbarlik uslublarini shakllantirgan. O‘qituvchilarni motivatsiya qilish va ishtirok ettirish orqali ta‘lim jarayoni samaraliroq bo‘lgan. Kurt Levinning rahbarlik uslublari ta‘lim muassasalarida motivatsiya va ishlashni oshirishga yordam bergan. Ushbu bosqich xodimlarning xulq-atvorini ta‘limda boshqarishga urg‘u bergan.

4. Tizimlar yondashuvi (1960–1970-yillar): Ludvig fon Bertalanfiyning tizimlar nazariyasi ta‘lim muassasalarini bir-biriga bog‘langan quyi tizimlar sifatida ko‘rib

chiqqan. Bu bosqichda ta'lim tizimi ochiq va organik tizim sifatida boshqarilgan, murakkab tashkilotlarda muvofiqlashtirish muhim bo'lgan. Ta'lim menejmenti tizimlar nazariyasiga asoslangan.

5. Shartli menejment (1970–1980-yillar): Pol Lorens va Jey Lorshning ishlariga asoslanib, ta'lim menejmenti muayyan sharoitlarga moslashtirilgan. Bir usul hammaga mos kelmasligi ta'kidlangan, ta'lim muassasalarining o'ziga xos xususiyatlariga qarab yondashuvlar o'zgartirilgan.

6. Inson resurslari yondashuvi (1980–1990-yillar): Psixologiya va tashkiliy nazariyani birlashtirib, ta'limda xodimlarning rivojlanishiga e'tibor qaratilgan. O'qituvchilar va rahbarlarning malakasini oshirish orqali maqsadlarga erishish ta'kidlangan.

7. Umumiy sifat yondashuvi (1990–2000-yillar): Uilyam Edvards Deming va Jozef Juranning tamoyillari ta'limda doimiy takomillashtirish va jamoaviy ishtirokni joriy etgan. Ta'lim muassasalarida sifatni boshqarish va baholash tizimlari rivojlangan.

8. Bilimga asoslangan yondashuv (2000-yillardan hozirgacha): Globalashuv va raqamli davrda bilimlarni boshqarish muhim bo'lgan. Ta'limda innovatsiyalar, qaror qabul qilish va raqamli texnologiyalar orqali samaradorlik oshirilgan. Ushbu bosqich ta'lim menejmentini murakkab, moslashuvchan tizimga aylantirgan.

Ta'lim menejmenti modellari. Bu ta'lim muassasalarini boshqarishning turli yondashuvlarini ifodalaydi. Ushbu modellar zamonaviy ta'lim tizimida samaradorlikni oshirish, resurslarni optimal taqsimlash, ishtirokchilarni motivatsiya qilish va natijalarni yaxshilash uchun qo'llaniladi. Quyida *Ta'lim menejmentining* 6 ta model taqdim etiladi. Har bir modelning mohiyati, afzalliklari, kamchiliklari va O'zbekiston ta'lim tizimida qo'llash bo'yicha ma'lumotlar beriladi.

1. *An'anaviy menejmenti modeli (Traditional Management Model).* Bu model klassik ierarxik tuzilishga asoslangan bo'lib rahbar (direktor yoki administrator) barcha qarorlarni qabul qiladi, resurslarni taqsimlaydi va nazoratni o'z qo'lida saqlaydi. Bunda yuqori pog'onadan pastga buyruqlar beriladi, o'qituvchilar va o'quvchilar esa ijrochi sifatida harakat qiladi.

Afzalliklari: Tez qaror qabul qilish, tartib va intizomning yuqori darajasi, resurslarni markazlashgan nazorati.

Kamchiliklari: Ijodkorlik va innovatsiyalarning cheklanganligi, xodimlarning passivligi, motivatsiya pastligi.

Qo'llanishi: O'zbekistonning ko'plab davlat maktablarida hali ham qisman saqlanib qolgan (masalan, markazlashgan rejalashtirish va nazorat). Xorijda esa eski sovet tizimiga o'xshash maktablarda uchraydi.

2. *Ishtirok etuvchi (participativ) menejmenti modeli (Participatory Management Model).* Bu modelda barcha manfaatdor tomonlar (o'qituvchilar, o'quvchilar, ota-onalar,

jamoa vakillari) qaror qabul qilish jarayoniga faol jalb etiladi. Rejalashtirish, amalga oshirish va baholash bosqichlarida hamkorlik ustunlik qiladi.

Afzalliklari: Motivatsiya va mas'uliyatning oshishi, turli fikrlarning hisobga olinishi, innovatsiyalarning ko'payishi, jamoaviy ruhiyatning kuchayishi.

Kamchiliklari: Qaror qabul qilish jarayoni uzoq davom etishi mumkin, ziddiyatlar paydo bo'lishi ehtimoli yuqori.

Qo'llanishi: O'zbekistonda "maktab kengashi" va "ota-onalar qo'mitasi" orqali qisman joriy etilmoqda. Zamonaviy islohotlarda (masalan, "Yangi O'zbekiston" strategiyasida) pedagoglar va ota-onalarning ishtirokini kuchaytirish talab etilmoqda.

3. Natijaga yo'naltirilgan boshqaruv modeli (Outcome-Based Management Model)

Ta'lim ma'muriyati aniq maqsadlar qo'yish, natijalarni o'lchash va ma'lumotlar asosida qaror qabul qilishga qaratilgan. O'quv natijalari (bilim, ko'nikma, kompetensiya) asosiy mezon bo'ladi.

Afzalliklari: Natijalarning o'lchanishi oson, sifatni doimiy yaxshilash imkoniyati, ma'lumotga asoslangan boshqaruv.

Kamchiliklari: Faqat o'lchanadigan natijalarga e'tibor qaratilishi, ijodiy va emotsional rivojlanishning e'tiborsiz qolishi mumkin.

Qo'llanishi: O'zbekistonda PISA, TIMSS kabi xalqaro baholashlar va "Ta'lim sifatini baholash" tizimi orqali joriy etilmoqda. Deming sikli (PDCA: Rejalashtirish – Bajaring – Nazorat – Harakat) va TQM (Total Quality Management) modellari shu asosda ishlaydi.

4. Loyihaviy boshqaruv modeli (Project-Based Management Model)

Ta'lim tashabbuslari yoki dasturlari loyiha sifatida qaraladi: integratsiyalangan rejalashtirish, tashkil etish, amalga oshirish va baholash bosqichlari mavjud. O'quv jarayoni real loyihalar orqali tashkil etiladi.

Afzalliklari: Amaliy ko'nikmalar rivoji, real muammolarni hal qilish, o'quvchilarning faolligi va ijodkorligi oshishi.

Kamchiliklari: Resurslar va vaqt talab qiladi, barcha o'qituvchilar tayyor bo'lmasligi mumkin.

Qo'llanishi: O'zbekistonda STEAM loyihalari, "Loyiha asosidagi ta'lim" va kasbiy ta'limda keng tarqalmoqda. Xorijda PBL (Project-Based Learning) orqali mashhur.

5. Transformatsion boshqaruv modeli (Transformational Management Model)

Ta'lim tizimi doimiy o'zgarish va innovatsiyaga muhtoj deb hisoblanadi. Rahbar jamoani motivatsiya qiladi, ilhomlantiradi va umumiy maqsadlarga erishish uchun birlashtiradi.

Afzalliklari: Innovatsiyalar va o'zgarishlarga moslashuvchanlik, rahbarning ilhomlantiruvchi roli, uzoq muddatli rivojlanish.

Kamchiliklari: Rahbarning shaxsiy fazilatlarini muhim, agar rahbar zaif bo'lsa, model ishlamaydi.

Qo'llanishi: O'zbekistonning "O'zbekiston-2030" strategiyasida ta'lim islohotlari va raqamlashtirish orqali qo'llanilmoqda. Rahbarlarning liderlik qobiliyatini rivojlantirishga urg'u berilmoqda (Katni & Laksana, 2020).

6. Jamiyatga asoslangan boshqaruv modeli (Community-Based Management Model)

Ta'lim muassasasi jamiyat (ota-onalar, mahalla, biznes, NNT) bilan yaqin hamkorlikda ishlaydi. Resurslarni maksimal darajada ishlatish uchun jamoa ishtiroki muhim.

Afzalliklari: Resurslarning ko'payishi, ta'limning jamiyat ehtiyojlariga moslashishi, ijtimoiy integratsiya.

Kamchiliklari: Hamkorlikni tashkil etish qiyin, manfaatlar ziddiyati paydo bo'lishi mumkin.

Qo'llanishi: O'zbekistonda "Jamiyat ishtirokidagi maktab" va "Ota-onalar bilan hamkorlik" dasturlari orqali rivojlanmoqda. Xorijda "Community Schools" modeli mashhur.

Umumiy o'rta ta'lim (o'rta maktablar, 1-11-sinflar) menejmentining amaliy qo'llanilishi uchun ideal maydon hisoblanadi, chunki bu bosqichda o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishi, o'quv dasturlari va maktab muhiti muhim rol o'ynaydi. O'zbekistonda umumiy o'rta ta'lim tizimi konstitutsiyaviy kafolatlar asosida bepul va majburiy bo'lib, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi (MOPSE) tomonidan boshqariladi. Ta'lim menejmentini o'rta ta'limga moslashtirganda, quyidagi jihatlarga e'tibor qaratiladi:

Rejalashtirish. Maktab direktori va o'qituvchilar jamoasi o'quv yilini rejalashtiradi, masalan, dars jadvalini tuzish, o'quv dasturlarini milliy standartlarga moslashtirish. O'zbekistonda 2019-2023 yillardagi Ta'lim sektorini rejalashtirish dasturi (ESP) doirasida 280 ta ekspert guruhlarini ishtirokida o'quv dasturlari qayta ko'rib chiqilgan. Statistik jihatdan, 2020-2021 yillarda umumiy o'rta ta'limda 6,28 million o'quvchi qatnashgan, bu 2010-2011 yillardagi 4,7 milliondan oshgan.

Tashkil etish. Maktab resurslarini (o'qituvchilar, darsxonalar, kitoblar) taqsimlash. O'zbekistonda 10 520 ta umumiy ta'lim muassasasi mavjud, 118 ta yangi maktab qurilgan va 3396 tasi ta'mirlangan (2018 yildan beri). Statistik ma'lumotlar bo'yicha, o'quvchi-o'qituvchi nisbati 13:1 ga yaqin, ammo ba'zi maktablarda ikki smenali tizim 74% ni tashkil etadi.

Quyidagi jadval O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta ta'limning asosiy statistik ko'rsatkichlarini ko'rsatadi.

1.-jadval

O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta ta'limning asosiy statistik ko'rsatkichlari

Ko'rsatkich	2023-2024 o'quv yili	2024-2025 o'quv yili	Prognoz
Umumiy o'rta ta'lim	10 522 (293)	10 943 (455 nodavlat)	Xususiy maktablar soni tez suratda

muassasalari soni [29,30]	xususi)			o'smoqda, ammo umumiy ulush hali past darajada
O'quvchilar soni [28,31]	~6,5 million	~6,78 million		Aholining o'sishi tufayli yuklama ortmoqda; quvvat yetishmasligi muammosi mavjud
Yalpi qamrov darajasi (GER) [27]	~97% (2023)	Barqaror, o'sish kuzatilmogda		2022 yildagi 86,92% dan biroz pasaygan, ammo barqaror o'smoqda
Ikki/ko'p smenali maktablar ulushi [30]	73,1%	Yuqori, infratuzilma muammosi davom etmogda		Sinflarda yuklama yuqori, ba'zi maktablarda o'quvchilar soni 30+ ga yetgan
Xususi maktablarda o'quvchilar [33]	~64 ming (taxminiy)	112 mingdan oshiq		Infratuzilma muammosi; 2026 yilgacha 1,2 million yangi o'rin kerak
Inklyuziv ta'lim qamrovi [34]	530 maktab, ~1195 bola	947 maktab, ~1901 o'rin		Maxsus ehtiyojli bolalar uchun yaxshilanishlar mavjud
Kasb-hunarga o'qitish maktablari	Rivojlanmogda	289-400 taga yetkazish reja		Davlat xarajatlari ijtimoiy sohada ustunlik qilmogda

Umumiy o'rta ta'lim muassasalari soni 2023-2024 o'quv yilida 10 522 tani (shundan 293 tasi xususi) tashkil etgan. 2024-2025 o'quv yilida 10 943 ta (shundan 455 tasi nodavlat/xususi). Bir yilda 421 ta yangi maktab qo'shilgan, asosan xususi sektor hisobiga. Xususi maktablar soni tez o'smoqda (2020 yildan beri 4,5 baravar ko'paygan), lekin umumiy ulush hali ham ~4% atrofida. Bu davlat yangi maktablar qurish va nodavlat sektor rivojiga ruxsat berish siyosati natijasidir erishilgan.

O'quvchilar soni 2023-2024 yillarda ~6,5 million (aniq 6 645,1 ming nafar). 2024-2025 yilga kelib ~6,78 million (aniq 6 776,3 ming nafar) ga yetgan. Bir yilda ~131 ming nafar o'sish kuzatilgan. Bu aholining yuqori tug'iluvchanligi va demografik o'sish bilan bog'liq. Natijada maktablar quvvati yetishmovchiligi kuchaymogda – 2026 yilgacha millionlab yangi o'rinlar kerak bo'lmoqda.

Yalpi qamrov darajasi (GER – Gross Enrollment Ratio) 2023 yilda ~97% edi. 2024-2025 yillarda barqaror o'sish kuzatilgan (2022 yildagi 86,92% dan keyin yaxshilangan). Umumiy o'rta ta'lim bilan deyarli barcha bolalar qamrab olingan – bu O'zbekistonning eng kuchli tomonlaridan biri hisoblanadi. Qamrov barqarorligi yuqori, ammo sifat va infratuzilma muammolari tufayli ba'zi hududlarda pasayish xavfi saqlanib qolmogda.

Ikki/ko'p smenali maktablar ulushi 73,1% foyizni tashkil etadi. → Maktablarning uchdan ikki qismi ikki yoki uch smenada ishlaydi. Bu infratuzilma yetishmasligining asosiy belgisi hisoblanadi. Sinflarda o'quvchilar soni 30-40 taga yetib, o'qituvchilar yuklamasi yuqori, o'quv jarayoni esa qisqa va samaradorlikka yetarlicha ta'sir ko'rsatgan.

Xususi maktablarda o'quvchilar 2023-2024 yillarda ~64 mingni va 2024-2025 yillarda 112 mingdan oshgan. Bir yilda ~75% ga o'sish holati kuzatilgan. Ota-onalar xususi maktablarni sifatli ta'lim, xorijiy tillar va zamonaviy sharoitlar uchun tanlamoqda.

Lekin bu ko'rsatkichga ko'ra umumiy o'quvchilarning ~1,65% ini tashkil etadi. Infratuzilma muammosini qisman yengillashtirsa-da, 2026 yilgacha 1,2 million yangi o'rin zarurligi saqlanib qolmoqda.

Inklyuziv ta'lim qamrovi 2023-2024 yillarda 530 maktab, ~1195 bola. 2024-2025 yillarda esa 947 maktab, ~1901 o'rin mavjudligini ko'rish mumkin. Maxsus ehtiyojli bolalar uchun imkoniyatlar sezilarli darajada yaxshilangan. Maktablar soni deyarli ikki baravar, o'rinlar ~60% ga oshgan. Bu davlatning inklyuziv ta'lim siyosati (BMT SDG 4 maqsadlari doirasida) natijasida yaxshilanganligi e'tirof etish lozim, ammo hali ham to'liq qamrovga erishilmagan.

Kasb-hunarga o'qitish maktablari rivojlanmoqda, Ushbu maktablar sonini 289-400 taga yetkazish rejalashtirilgan. Maktablar sonini ko'paytirish va modernizatsiya qilish orqali kasb-hunar ta'limiga e'tibor kuchaymoqda. Bu mehnat bozori talablariga mos kadrlar tayyorlash uchun muhim. Shunga ko'ra davlatimiz ijtimoiy sohalarga xarajatlarni ustun qo'yib, kasb ta'limini rivojlantirishga e'tibor qaratmoqda.

Rahbarlik va motivatsiya. Direktor o'qituvchilarga rahbarlik qiladi, ularni malaka oshirish kurslariga yuborish orqali motivatsiya qiladi. O'zbekistonda ESP doirasida 38 000 dan ortiq o'qituvchi yangi dasturlar bo'yicha o'qitilgan, inklyuziv ta'lim va ICTga urg'u berilgan. O'quvchilarda rahbarlikni rivojlantirish uchun sinf rahbarlari va maktab kengashlari tuziladi. Muvofiqlashtirish va nazorat. Ota-onalar, o'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasidagi hamkorlikni ta'minlash, masalan, yig'ilishlar va baholash tizimlari orqali. O'zbekistonda Ta'lim sifatini baholash ramkasi (EQAF) 2020 yilda tasdiqlangan, EMIS tizimi takomillashtirilgan. Sifat nazorati uchun testlar va monitoring o'tkaziladi, ammo maktablarda suv va hojatxonalar bilan bog'liq muammolar (78% funksional hojatxonalar) mavjud.

Xulosa. Ta'lim menejmenti ta'lim tizimining samarali faoliyat yuritishini ta'minlaydigan muhim boshqaruv jarayonidir. Uning rivojlanish bosqichlari jamiyat taraqqiyoti, ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar va ta'lim tizimidagi yangilanishlar bilan uzviy bog'liq holda shakllangan. Zamonaviy ta'lim menejmenti ta'lim muassasalarida boshqaruvni samarali tashkil etish, pedagogik jarayonni to'g'ri yo'lga qo'yish hamda ta'lim sifatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli ta'lim menejmentining nazariy asoslarini chuqur o'rganish va amaliyotga joriy etish ta'lim tizimini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Drucker P. The practice of management. – Routledge, 2012.
2. Melé D. Ethics in management: Exploring the contribution of Mary Parker Follett //International Journal of Public Administration. – 2007.
3. R.X.Jo'rayev, S.T.Turg'unov "Ta'lim menejmenti".-Toshkent: O'qituvchi, 2006.
4. Sh.Po'latov. Ta'lim menejmenti: yoxud ta'lim muassasasini ilmiy-metodik boshqarish strategiyasi. O'quv qo'llanma. T.: "Yosh kuch", 2019, t

5. To'xtaxo'jayeva M., Nishonova S., Madiyarova S., Qaldibekova A. va boshqalar. Pedagogika. – Toshkent: Iqtisod-moliya nashriyoti, 2008.
6. Bush T. Theories of educational leadership and management. – 2020.
7. [G. Terry and J.B. Thomas](#), International Dictionary of Education Paperback – January 1, 1979
8. Bolam R. Educational administration, leadership and management: towards a research agenda //Educational management: Redefining theory, policy and practice. – 1999.
9. Bush T. Theories of Educational Leadership and Management. 5th ed. London: SAGE Publications,
10. Leithwood K., Harris A., Hopkins D. Seven strong claims about successful school leadership revisited // School Leadership & Management. 2020. Vol.

